




AMIR SHOHMUROD DAVRIDA ADOLAT VA ISLOHOT SIYOSATI

Raximov Islomjon Ixtiyor o'g'li

Urganch davlat pedagogika instituti, talaba

E-mail: raximovi923@gmail.com

+99893-741-99-49

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18627628>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 31-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 6-fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 13-fevral 2026 yil

KEY WORDS

Amir Shohmurod, Buxoro amirligi, mang'itlar sulolasi, islohotlar, so'fiylik, iqtisodiy siyosat, ta'lim tizimi, adolatli boshqaruv.

ABSTRACT

Ushbu maqolada XVIII asrda Buxoro amirligining tashkil topishi va Amir Shohmurod hukmronligi davridagi siyosiy, iqtisodiy hamda diniy islohotlar yoritiladi. Amir Shohmurodning davlat boshqaruvidagi adolatparvarligi, so'fiylik ta'siridagi shaxsiyati, moliyaviy va ma'muriy islohotlari, ta'lim va din sohasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, uning kamtarona hayot tarzi va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan siyosati natijasida Buxoro amirligida barqarorlik va taraqqiyotga erishilgani ko'rsatib beriladi

XVIII asr Buxoro amirligi tashkil topgan davr sifatida tarixga kirdi. Bu davr mobaynida amirlikni mang'it urug'iga mansub bo'lgan sulola vakillari boshqardi. Bular orasida Doniyolbiy otaliqning o'g'li Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida iqtisodiy va siyosiy balki, diniy barqarorlik ham o'rnatildi.

Farosatli, aqlli va taqvodor hisoblangan Amir Shohmurod 1785-yil 10-iyunda Buxoro taxtiga keldi. Mang'itlar sulolasining yirik vakillaridan biri hisoblangan amir Shohmurod hokimyat tepasiga kelgach o'zidan oldingi «soxta xon»larni va xon unvonini bekor qilib o'zini «Amir» deb e'lon qiladi. Shohmurod davlat boshlig'i – amirlik unvonini ta'sis etar ekan, ushbu unvonning o'zbek va mo'g'ul urug'lari an'analari bilan emas, balki shariat qoidalari asosida yuzaga kelganini asoslab beradi va shu davrdan boshlab mamlakat rasman Buxoro amirligi deb atala boshlanadi.[2] Ma'lumki, Amir Shohmurod davridan boshlab, Buxoro amirligida mang'itlar hokimiyati ham rasman o'rnatildi.

Amir Shohmurodning davlat arbobi bo'lib shakllanishida so'fiylik oqimining ta'siri juda kuchli bo'lgan. Ko'pgina tarixiy manbalarda uning so'fiy va darveshsifat bo'lgani qayd etiladi. U yoshligida shayx xizmatiga kirib, unga sodiqlikka qasam ichgan, xalq ko'z o'ngida oddiy hayot kechirib, hammollik bilan shug'ullangan. Tarixchi Mulla Olim Mahdum Hoji o'zining "Tarixi Turkiston" asarida: "Shohmurodbiy ziyoda so'fiy, xudoga yaqinlashish yo'lini tutgan (doxuli suluk) va taraqqiyparvar, shariat targ'ibotchisi (shar'i sharif), taomi o'z kasbi halolidan edi", deb xarakterlaydi. Bundan uning Buxoroda vujudga kelib Markaziy Osiyoda keng yoyilgan savdogar va hunarmandlar tariqati bo'lgan Naqshbandiya tariqatiga e'tiqod qilganligi yaqqol ko'rinib turibdi.[3] Bu jihat aynan Amir Shohmurodni davlatni adolatli boshqarishi va odillik bilan siyosat yuritishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. U ilm ahllarini hurmatlab, ularga homiylik qilgan. So'fiy, podshoh Shohmurodning ba'zi bir qarashlari uning o'zi yozgan "Aynul-hikmat" "Bilimdonlik manbai" nomli kitobida ham o'z ifodasini topgan.

Shohmurod o'z hukmronligini 1785-yilda Buxoro shahrida ko'tarilgan katta qo'zg'olonni bostirishdan boshlaydi. Bu qo'zg'olon harakat doirasining kengligi haqida shundan ham bilish mumkinki, uni bostirish chog'ida mingdan ortiq qo'zg'olonchilar nobud bo'lgan edilar[2] Shohmurod otasi davrida davlat idorasi tepasida turgan yuqori lavozimlardagi Buxoro amaldorlarini xalqqa zulm o'tkazganliklari va soliqlarni haddan oshirganliklari uchun o'z qo'llari bilan qatl ettiradi, viloyat hokimlari, amaldorlarni va qozilarni mansablaridan tushirib o'rniga o'z maslakdoshlarini tayinlaydi. «Fath nomai sultoni» asarining muallifi Muhammad Ali Buxoriyning bergan ma'lumotiga ko'ra Shohmurod Buxoro aholisini soliqlardan ozod qilib tarxon yorliqlari bergan.[1] Amir Shohmurod bu siyosat orqali xalqning moddiy ahvolini yaxshilashga, jamiyatda tenglik siyosatini olib borishga urindi va bunga ham erishdi. Bu davrda butun aholi amirning odilona davlat boshqaruvini qo'llab-quvvatladi.

Shohmurod hukmronligi davrida to'rtta: 1) moliyaviy, 2) ma'muriy, 3) qozi hakamlar va 4) harbiy ishlar sohasida islohotlarni amalga oshirdi. Moliyaviy ishlarda ma'lum darajada tartib o'rnatdi va davlat hokimiyatini mustahkamladi. U tom ma'nodagi qimmatga ega bo'lgan kumush tangalar zarb etadi. Ayni zamonda har bir shaxsning kumush tangalarini o'zi mustaqil zarb qilishiga ham sharoit yaratildi. Davlat fuqarolarning tangalarini zarb qilishga yordam berardi.[1] Amir Shohmurod bu kumush tanga zarb qilish orqali, aholi orasida savdo munosablari va iqtisodiyotni rivojlantirdi, shuningdek davlatda pul munosabatlarini barqarorlashuvini taminladi.

Amir Shohmurod Islom dini rivojiga katta hissa qo'shadi. U din niqobidagi bid'atlarni tugatish uchun ulamolarga buyruq bergani ma'lum. Bundan ko'rinib turibdiki, Shohmurod o'z vaqtida musulmon mutassibligiga qarshi taraqqiyparvar bo'lgan. Shariatni ijtimoiy-siyosiy hayotga mutassiblikdan farqli o'laroq to'g'ri tadbiiq etgan. Shuning bilan birga Amir Shohmurod pul islohoti ham o'tkazib, ishlab chiqarish va savdoga katta e'tibor beradi.[4] Ayni vaqtda, Shohmurod yoshlikdan diniy ilm bilan birgalikda dunyoviy bilimlarni ham teng o'rganganligi uchun ham o'sha davr madrasa ta'limida dunyoviy ilmlar ham judda katta ahamiyatga ega ekanligini angalagan holda diniy mutassiblarga qarshi kurashdi.

Abu Tohirxojaning «Samariya» asarida keltirilishicha, Shohmurod yoshligida bir necha yil Mir Arab madrasasida tahsil olgan. U boshqa fanlar qatorida tasavvuf ilmini ham o'rgangan va so'fiyona turmush tarzi uning hayoti mazmuniga aylangan. U Buxoro madrasasida «Hidoya», Bayzoviyning «Kitob usul ad-din» asaridan hamda Shotibiyning asarlari va unga yozilgan sharhlardan dars bergan. Shohmurodning o'g'li Miriyning yozishicha, Shohmurod «Shotibiya» va uning sharhlarini yoddan bilgan. Shuningdek, u qiroat, hadis va fiqh ilmlari bilimdoni bo'lgan va umrini talabalarga dars berishga sarflab, ko'plab shogirdlar yetishtirgan. Amir Shohmurod madrasa talabalariga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaqa (stipendiya) to'lashni joriy etgan.[2] Amir Shohmurod ta'lim tizmini rivojlantirish uchun davlat ishlaridan tashqari, madrasalarda ham dars berganligi tahsinga loyiq.

Ahmad Donishning qayd etishicha: <<Amir Shohmurodning kundalik yeydigan taomlari quruq taomlari quruq non va bir kosa suv bo'lgan>>, Boshqa bir tarixchi Muhammad Hakimxon to'ra : <<Shohmurodbiyning yeydigan taomlari kishi yeydigan darajada bo'lmay, o't-o'lan, sut-qattiq va dukkakli o'simliklar bilan taomlangan>>ligini yozgan.[5] Demak, Amir Shohmurod kamtarona turmush tarzi bilan xalq orasida hurmat va shuhrat qozongan.

Xulosa qilib aytganda, amir Shohmurod, katta bir davlatning rahbari edi. Amir Shohmurod hukmronligi davrida Buxoro amirligi gullab-yashnadi, nisbatan tinchlik-osoyishtalik davri bo'ldi. Amir, bir tomondan, o'zining buyuk e'tiqod va mustahkam iymoni bilan, ikkinchi tomondan esa mamlakatni markazlashtirish, adolatli jamiyat barpo etish, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotni ko'tarish vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Davlat rivoji va xalq ravnaqini ta'minlagan, yurt obodonchiligiga katta e'tibor qaratgan, ijtimoiy adolatsizliklarga barham bergan islohotlari bilan adolatli va xalq suygan hukumdorga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.R.Shamsutdinov., Sh.Karimov., O'.Ubaydullayev. Vatan tarixi. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. 82-83.
- 2.A.Zamonov., A.Egamberdiyev. Buxoro amirligi tarixi. – T.: “TAMADDUN” NASHRIYOTI, 2022. 47-48-49.
- 3.H.To'raev. Buxoro tarixi. – B.: “Durdona” nashriyoti, 2020. 185-186.
- 4.S.Xolboev. Buxoro amirligining oltin xazinası. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2008. 158-159.
- 5.A.Zamonov., A.Egamberdiyev. O'zbekiston tarixi. – T.: “BAYOZ”, 2022. 53.



**INNOVATIVE
ACADEMY**